



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 27 sahifa.

2025-yil noyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS	15
Ibrokhimkhuja Rikhsikhujaev, Mohit Bhandwal	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev	



BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li

Millat Umidı Universiteti magistratura bosqichi talabasi

E-mail: bois1494@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Ozodbek Musayev**

PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada biznes boshqaruvi jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi keng yoritilgan. Tadqiqotda raqamli transformatsiyaning zamonaviy korxonalar faoliyatidagi ahamiyati, ularning boshqaruv tuzilmasi va ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar — sun'iy intellekt, "bulutli" hisoblash, "big data", avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va CRM platformalar — yordamida biznes jarayonlarini optimallashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlari o'rganilgan. Maqolada, shuningdek, O'zbekiston korxonalari misolida raqamli texnologiyalarni joriy etish holati, mavjud muammolar hamda ularni hal etish yo'llari tahlil qilingan. Xorijiy tajriba asosida raqamli boshqaruv tizimlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda innovatsion yondashuvlar o'rganilib, ularning mahalliy sharoitga moslashtirish usullari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni to'g'ri joriy etish korxonalar uchun xarajatlarni kamaytirish, foyda hajmini oshirish, boshqaruvdagi inson omilini qisqartirish hamda tezkor qaror qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Maqola yakunida raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida biznes sub'yektlari uchun strategik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kali so'zlar: raqamli texnologiyalar, biznes boshqaruvi, iqtisodiy samaradorlik, raqamli transformatsiya, innovatsiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlar, raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, big data, raqobatbardoshlik.

Abstract: This article comprehensively explores the economic efficiency of implementing digital technologies in business management processes. The study analyzes the importance of digital transformation in the activities of modern enterprises, its impact on management structures, and production efficiency. The opportunities for optimizing business processes and increasing competitiveness through digital technologies — such as artificial intelligence, cloud computing, big data, automated management systems, and CRM platforms — are examined. The article also analyzes the state of digital technology implementation in Uzbek enterprises, existing challenges, and ways to address them. Based on foreign experience, innovative approaches to determining the economic efficiency of digital management systems are studied, and methods for adapting them to local conditions are proposed. The research results show that the proper implementation of digital technologies enables companies to reduce costs, increase profits, minimize the human factor in management, and make faster decisions. The article concludes with strategic recommendations for business entities during the transition to a digital economy.

Key words: digital technologies, business management, economic efficiency, digital transformation, innovations, automated systems, digital economy, artificial intelligence, big data, competitiveness.

Аннотация: В данной статье подробно раскрыта экономическая эффективность внедрения цифровых технологий в процессы управления бизнесом. В исследовании анализируется значение цифровой трансформации в деятельности современных предприятий, её влияние на управленческую структуру и производственную эффективность. Рассмотрены возможности оптимизации бизнес-процессов и повышения конкурентоспособности с помощью цифровых технологий, таких как искусственный интеллект, облачные вычисления, большие данные, автоматизированные системы управления и CRM-платформы. В статье также проанализировано состояние внедрения цифровых технологий на предприятиях Узбекистана, существующие проблемы и пути их решения. На основе зарубежного опыта изучены инновационные подходы к определению экономической эффективности цифровых систем управления и предложены методы их адаптации к местным условиям. Результаты исследования показывают, что правильное внедрение цифровых технологий позволяет предприятиям снижать издержки, увеличивать прибыль, сокращать влияние человеческого фактора в управлении и принимать решения более оперативно. В заключении статьи разработаны стратегические рекомендации для бизнес-субъектов в процессе перехода к цифровой экономике.

Ключевые слова: цифровые технологии, управление бизнесом, экономическая эффективность, цифровая трансформация, инновации, автоматизированные системы, цифровая экономика, искусственный интеллект, большие данные, конкурентоспособность.



KIRISH

Hozirgi globallashtirish davrida biznes muhitida raqamli texnologiyalar jadal sur'atlar bilan kengayib bormoqda. Korxonalar boshqaruvi va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish hamda tezkor va aniq qarorlar qabul qilish uchun raqamli yechimlarni joriy etishga intilmoqda. Ushbu jarayon "raqamli transformatsiya" deb ataladi va u biznes boshqaruvida raqamli texnologiyalarni qo'llashning iqtisodiy samaradorligini o'rganish uchun muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishining ulkan salohiyati mavjud. Masalan, mamlakatda internet foydalanuvchilari soni taxminan 29 million nafarga yetgan. 2023-yilda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori yalpi ichki mahsulot (YalM)ning qariyb 2,1 foiz ulushini tashkil etgan. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan strategik hujjat — "Digital Uzbekistan – 2030" strategiyasi — 2020-yilda qabul qilingan bo'lib, unda oziq-ovqat sanoatidan tortib xizmatlar sohasigacha bo'lgan barcha tarmoqlarda raqamlashtirish jarayonlari bosqichma-bosqich belgilab berilgan.

Mamlakat 2024-yilda raqamli davlat xizmatlari va elektron hukumat (e-hukumat) tizimlari sohasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Xususan, sanoat bazasidagi tarmoqlarda to'liq raqamli qamrovga o'tish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda axborot tizimlarini integratsiyalash borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida ayrim tizimli takomillashtirishni talab qiluvchi jihatlar ham mavjud. Bular — kadrlar salohiyatini yanada oshirish, infratuzilmani kengaytirish (ayniqsa, chekka hududlarda), va mavjud qonunchilik bazasini zamon talablariga mos ravishda yangilab borish zaruratidir. Ushbu omillarni bosqichma-bosqich hal etish orqali raqamli transformatsiya jarayoni yanada tezlashadi.

Shu sababli, korxonalar faoliyatida raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligini chuqur tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi. Buning natijasida raqamlashtirishning xarajatlari va daromadlilik darajasi, korxona qiymatiga qo'shayotgan hissasi hamda boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari aniqlanadi.

Ushbu maqolada, avvalo, raqamli texnologiyalarni biznes boshqaruvida qo'llash konsepsiyasi va nazariy asoslari tahlil qilinadi. So'ngra, O'zbekistonda raqamli transformatsiyaning hozirgi holati tegishli qonun hujjatlari va strategiyalar asosida statistik ma'lumotlar yordamida o'rganiladi. Shundan keyin, korxonalarda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi asosiy ko'rsatkichlar — xarajatlar, daromadlar, boshqaruv samaradorligi va raqobatbardoshlik — tahlil qilinadi. Tadqiqot yakunida olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar va strategik takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarni biznes boshqaruvida qo'llash masalasi jahon miqyosida eng dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, raqamli transformatsiya korxonalarga ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, boshqaruv tizimini soddalashtirish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

M. Porter va J. Heppelmann (2017) o'zlarining "How Smart, Connected Products Are Transforming Competition" nomli maqolasida raqamli texnologiyalar, xususan "Internet of Things" (IoT) va sun'iy intellekt yechimlari orqali yangi biznes modellarni shakllantirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Shuningdek, Bharadwaj, El Sawy, Pavlou va Venkatraman (2019) o'z tadqiqotlarida raqamli biznes strategiyasi hamda iqtisodiy qiymat yaratish o'rtaidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy asoslab bergan. Ularning fikricha, raqamli texnologiyalarni to'g'ri joriy etish natijasida ishlab chiqarish xarajatlarini 20–30 foizgacha kamaytirish mumkin.

O'zbekiston sharoitida ham bu yo'nalishdagi islohotlar izchil va keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni¹ bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatda raqamli iqtisodiyotga o'tishning mustahkam huquqiy asosini yaratdi. Strategiyada 2030-yilgacha bo'lgan davrda barcha tarmoqlarni raqamlashtirish, elektron boshqaruv tizimlarini joriy etish hamda axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

T. Abdurahmonova (2022) o'zining "O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlari" nomli ilmiy maqolasida raqamli boshqaruv tizimlarining samaradorligini baholash metodikasini ishlab chiqib, raqamli texnologiyalarni joriy etgan korxonalarda mehnat unumdorligi 25 foizga, foyda darajasi esa 15–20 foizga oshganini ta'kidlagan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Digital Economy Report – 2022" hisobotida esa raqamli iqtisodiyot global yalpi ichki mahsulotning 15 foizdan ortig'ini tashkil etishi qayd etilgan. Unda, shuningdek, raqamli texnologiyalarni faol joriy etgan kompaniyalar o'z daromadlarini o'rtacha 1,5 barobarga oshirganligi ma'lum qilingan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://lex.uz/docs/-5030957>



Bundan tashqari, Global CIO hamda Digital Watch Observatory manbalarida O'zbekistonning raqamli rivojlanish darajasi, internet foydalanuvchilari soni va AKT sektori ulushi bo'yicha yangilangan statistik ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, 2023-yilda internet foydalanuvchilari soni 29 million nafardan oshgan, AKT sektori esa YAIMning 2,1 foiz qismini tashkil etgan.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni biznes boshqaruviga joriy etish korxonalar uchun xarajatlarni kamaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish va tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi muhim omildir. Shu bois, O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli boshqaruv tizimlarini tatbiq etish iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi strategik yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning maqsadi — biznes boshqaruvi jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash hamda uni baholash mezonlarini ishlab chiqishdan iborat. Shu maqsadda tadqiqotda bir nechta ilmiy yondashuvlar va metodlardan kompleks tarzda foydalanildi.

Avvalo, mavzuga oid nazariy manbalar va ilg'or ilmiy adabiyotlar chuqur o'rganildi. Raqamli texnologiyalar va ularning boshqaruvdagi o'rni bo'yicha xorijiy olimlar — M. Porter, J. Heppelmann, V. Bharadwaj va El Sawy kabi mutaxassislarining ilmiy ishlari tahlil qilindi. Mahalliy sharoitda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi (PF-6079, 2020-yil 5-oktabr) hamda raqamli iqtisodiyot rivojiga oid hukumat qarorlari asosiy huquqiy manbalar sifatida tanlab olindi.

Tadqiqot jarayonida analitik, solishtirma va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Analitik tahlil yordamida raqamli texnologiyalarni biznes boshqaruviga joriy etishning iqtisodiy mohiyati va nazariy asoslari chuqur o'rganildi. Solishtirma usul orqali O'zbekiston tajribasi Germaniya va Janubiy Koreya kabi iqtisodiy jihatdan ilg'or davlatlar amaliyoti bilan qiyoslab tahlil qilindi. Bu yondashuv raqamli transformatsiyaning turli mamlakatlarda qanday iqtisodiy natijalar berganini aniqlash, eng samarali modellarni tanlash va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkonini berdi.

Umuman olganda, tanlangan metodologik yondashuvlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligini, tahlil natijalarining ishonchliligi va amaliy ahamiyatini ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti so'nggi yillarda sezilarli o'sishni namoyon etdi. 2023-yilda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori yalpi ichki mahsulotga 2,1 foiz hissa qo'shdi. 2024-yilga kelib, axborot-kommunikatsiya sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalar soni 10 551 taga yetdi. Sanoat rivojlanishining asosiy drayverlaridan biri hisoblangan IT-Park hozirda 2 500 dan ortiq kompaniyani o'z ichiga oladi. AKT eksporti 2022-yildagi 140 million AQSh dollaridan 2023-yilda 344 million AQSh dollariga yetib, ikki baravardan ziyod o'sishni qayd etdi.

Hukumat tomonidan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida raqamli transformatsiyani jadallashtirish maqsadida raqamli infratuzilmani rivojlantirish uchun 2,5 milliard AQSh dollari miqdorida mablag' yo'naltirilgan. Elektron davlat xizmatlari sohasi kengayib, O'zbekiston global miqyosda 57-o'rinni egallagan. Biroq, raqamli xizmatlarni yanada takomillashtirish va joriy etish darajasini oshirish bo'yicha ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Raqamli infratuzilma rivojlanishida urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlarda sezilarli natijalarga erishilgan. Mobil internet tarmog'ining kirib borish ko'rsatkichi yildan-yilga ortib bormoqda, 4G texnologiyasi esa mamlakatning aksariyat hududlarida joriy etilgan. Shu bilan birga, chekka va qishloq joylarda raqamli savodxonlikni oshirish va yuqori sifatli internetga ulanishni kengaytirish bo'yicha dasturlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonning Tarmoqqa tayyorlik indeksi – 2023 hisobotiga ko'ra, mamlakatda AKTni tartibga solish bo'yicha tizimli islohotlar olib borilmoqda. Bu yo'nalishda yaratilayotgan yangi qonunchilik bazasi va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida kelgusi yillarda O'zbekistonning reytinglardagi o'rni sezilarli yaxshilanishi kutilmoqda.

AKT sektorida bandlik hajmi ham barqaror o'sishni namoyon etmoqda: 2020-yilda 62 200 nafar bo'lgan ishchi kuchi soni 2023-yilda 87 800 nafarga yetdi. Axborot texnologiyalari bo'yicha ta'lim dasturlari kengayib, 21 ta universitet va 14 ta xorijiy hamkorlik dasturi doirasida yuqori malakali kadrlar tayyorlanmoqda. "One Million Uzbek Coders" kabi tashabbuslar yoshlarning raqamli ko'nikmalarini oshirishda muhim o'rin tutmoqda. Ayni paytda, malakali mutaxassislar soni tobora ortib borayotgani AKT sohasining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

2021-yilda IT-Park tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, kompaniyalar orasida AT-mutaxassislarini yollash jarayonida ayrim qiyinchiliklar kuzatilgan. Ammo keyingi yillarda ta'lim va malaka oshirish dasturlarining kengayishi bu muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etmoqda. Hozirda AKT sohasida malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy va xalqaro hamkorlikdagi dasturlar samarali yo'lga qo'yilgan.



O'zbekiston biznes sektori faol raqamlashtirish bosqichiga kirdi. Ko'plab kompaniyalar ma'lumotlar bazalarini raqamlashtirib, moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirmoqda. COVID-19 pandemiyasi davrida raqamli transformatsiya jarayoni sezilarli tezlashdi — 2021-yilda tadqiqot qilingan firmalarning 51,2 foizi raqamli platformalarni joriy etgan yoki ularning hajmini kengaytirgan. Bu ko'rsatkich 79 ta davlat orasida eng yuqori natijalardan biri sifatida qayd etilgan.

Raqamlashtirish jarayonida bank-moliya sektori yetakchilik qilmoqda. Xususi kompaniyalar ham raqamli yechimlarga faol investitsiya kiritishni boshlagan. Bu esa iqtisodiyotning barcha sohalarida raqamli infratuzilma va boshqaruv tizimlarining jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Kelgusida raqamli taraqqiyotni ta'minlash uchun O'zbekiston quyidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratmoqda: davlat korxonalarini xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish, yuqori sifatli internet qamrovini kengaytirish (ayniqsa, xizmat ko'rsatishdan chekka hududlarda), shuningdek, raqamli boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirish. Shu bilan birga, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, raqamli hamda moliyaviy savodxonlikni oshirish, ayniqsa, qishloq aholisi va ayollar o'rtasida bu jarayonni keng targ'ib etish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti izchil o'sish bosqichida bo'lib, raqamli transformatsiya mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va innovatsion boshqaruv modeliga o'tish uchun mustahkam asos yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda biznes sektorida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni milliy iqtisodiyot rivojida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya mamlakatda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va boshqaruv tizimlarini optimallashtirishda muhim omilga aylanmoqda.

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonning moliya, chakana savdo, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi sohalarida raqamli texnologiyalarni qabul qilish darajasi hamda ulardan foydalanish natijalari tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, sun'iy intellekt (AI), bulutli texnologiyalar, "Internet of Things" (IoT) va katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili kabi ilg'or yechimlar korxonalarda mahsuldorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni mustahkamlashda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Raqamli transformatsiyaning samaradorligi, albatta, uzluksiz rivojlanishni talab etadi. Shu bois, raqamli ko'nikmalarni kengaytirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda kichik va o'rta bizneslar (KOB) uchun investitsiya imkoniyatlarini yanada oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Hozirda bu borada davlat siyosati doirasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, xususan, raqamli ta'limni kengaytirish, axborot-kommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish va xususi sektorni raqamli islohotlarga faol jalb etish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Kelajak istiqbollari nuqtayi nazaridan, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning yanada rivojlanishi mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirib, uni global raqamli bozorning faol ishtirokchisiga aylantiradi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasining to'liq va samarali amalga oshirilishi O'zbekistonni raqamli iqtisodiyot va texnologik taraqqiyot sohalarida yetakchi davlatlar qatoriga olib chiqish imkonini beradi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan, xususi sektor bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan dasturlar — xususan, raqamli ta'limni rivojlantirish, infratuzilmani kengaytirish va KOB uchun moliyaviy yordam mexanizmlarini takomillashtirish — raqamli transformatsiya jarayonini yanada tezlashtiradi. Bu esa milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini kuchaytirish, bandlik darajasini oshirish hamda iqtisodiy o'sishga yangi turtki berish imkonini yaratadi.

Umuman olganda, O'zbekistonning raqamli rivojlanish strategiyasi va amaliy natijalari raqamli iqtisodiyotning kelajakdagi barqaror o'sishini ta'minlashga, mamlakatni global raqamli maydonda munosib o'rin egallashiga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni — "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-5030957>
2. Datareportal (2024). Digital Uzbekistan 2024 Report. – Datareportal. <https://datareportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan>
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi (2023). O'zbekistonda elektron tijorat va raqamli xizmatlar bo'yicha statistik tahlillar. – Statistika qo'mitasi nashrlari.
4. Asian Development Bank (ADB) (2022). Disruptive Digital Technology and its Impact on Employment in Uzbekistan. – Asian Development Bank.
5. Global CIO (2023). Digital Transformation of Uzbekistan: Current Progress and Challenges. – Global CIO Magazine.
6. The Diplomat Magazine (2022). Uzbekistan on the Path of Digitalization: Achievements and Plans. – Diplomat Magazine.



7. Naveen Kumar. (2025). Big Data Statistics 2025: Growth and Market Data. <https://www.demandsage.com/big-data-statistics/>
8. В.Л. Абашкин, Г.И. Абдрахманова, К.О. Вишневский, Л.М. Гохберг и др. Индикаторы цифровой экономики: 2024: статистический сборник. – Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». – М.: ИСИЭЗ ВШЭ, 2024. – 276 с.
9. Osterwalder, A. & Pigneur, Y. (2010). Business Model Generation: A Handbook for Visionaries, Game Changers, and Challengers. – John Wiley & Sons.
10. К. Тумай. Имитационное моделирование бизнес-процессов: как отображаются характеристики процессов при моделировании. <http://www.consulting.ru/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
